

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR TARJIMA JARAYONIDA: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Z.I.Saliyeva.¹*Annotatsiya:*

Jahon tilshunosligi va tarjimashunoslik sohasida raqamli innovatsiyalarga moslashish jarayonlari nihoyatda jadal ketmoqda. Xususan, sun'iy intellekt asosidagi mashina tarjimasi, elektron lug'atlar, matn korpuslari va interfaol o'quv platformalari kabi texnologiyalar tarjima jarayonini tubdan o'zgartirib, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. G'arb va rus tilshunosligida ushbu sohada katta yutuqlarga erishilgan bo'lsa, O'zbekistonda ham tarjima ta'limida raqamli innovatsiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha izlanishlar kengaymoqda.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, raqamli innovatsiya, elektron lug'at, matn korpusi, g'arb tilshunosligi.

Sun'iy intellekt, mashinaviy tarjima tizimlari va kompyuter yordamida tarjima qilish vositalari tarjimonlarning ishini osonlashtirish bilan birga, yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. SamDChTI (Samarqand davlat chet tillar instituti) professor-o'qituvchilari Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabalari uchun zamonaviy texnologiyalarning tarjima jarayoniga ta'sirini chuqur tahlil qilish hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha yondashuvlarni qo'llab talabalarga innovatsion yondashuvlar bilan mashg'ulotlarni olib borishmoqda.

Hozirgi kunda tarjimonlar Google Translate, DeepL, ChatGPT kabi mashinaviy tarjima vositalaridan keng foydalanmoqda. Ushbu texnologiyalar matnning umumiy mazmunini tez tushunishga yordam bersada, inson faktori, madaniy kontekst va stilistik talablar e'tiborga olinmagan taqdirda sifat jihatdan noadekvat tarjima natijasini berishi mumkin. Shu sababli, SamDChTI o'qituvchilari talabalarni nafaqat ushbu vositalardan foydalana olish, balki ularni to'g'ri tahrir qilish va moslashtirish ko'nikmalarini ham shakllantirishga o'rgatmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning tarjima sohasiga ta'siri ijobiy va salbiy jihatlarga ega [Zokirova Kh, 2024]. Afzalliklarini sanab o'tadigan bo'lsak:

- Tarjima jarayonini tezlashtiradi;
 - Texnik matnlar uchun mos keladi;
 - Ko'p tillarda dastlabki tarjima variantini beradi.
- Kamchiliklari esa quyidagilarni qamrab oladi:
- Semantik noaniqlik va grammatik xatolarga yo'l qo'yishi mumkin;
 - Madaniy kontekstni yetarlicha ochib bermaydi;
 - Tarjimaning ijodiy jihatini to'liq aks ettira olmaydi.

SamDChTI Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası professor-o'qituvchilari talabalarga inson va texnologiya integratsiyasi asosida shakllangan gibrid tarjima usuli eng samarali metod ekanligini o'rgatmoqda. Avval texnologiyalar yordamida dastlabki tarjima tayyorlanadi, so'ngra inson tomonidan tahrirlanadi va moslashtiriladi. Bu nafaqat sifatli tarjima olishga, balki jarayonning tezlashishiga ham xizmat qiladi.

Tarjima o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash yo'llari esa bir necha asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, o'qituvchilar va tarjimonlar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etilishi zarur. Chunki har qanday yangi texnologiyani samarali qo'llash uchun avvalo undan to'g'ri foydalanishni o'rganish lozim. Masalan, SDL Trados yoki MemoQ dasturlaridan unumli foydalanish uchun mutaxassislar tomonidan o'quv kurslari o'tkazilishi kerak [Zokirova Kh, 2024].

Ikkinchidan, tarjima mashg'ulotlariga interaktiv vositalarni kiritish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tarjima amaliyoti jarayonida o'quvchilar CAT dasturlaridan foydalangan holda real loyihalarda ishlashlari mumkin. Bu ularga tarjimonlik ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi.

Uchinchidan, tarjima jarayonini avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Neyron mashina tarjima tizimlari yordamida o'quvchilar tarjimalarni tahlil qilib, ulardagi xatolarni tuzatish orqali o'z bilimlarini rivojlantirishlari mumkin.

To'rtinchidan, gamifikatsiya va test vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Quizlet, Kahoot kabi platformalar orqali terminologik testlar va interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish nafaqat o'quv jarayonini qiziqarli qiladi, balki bilimlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

¹ Z.I.Saliyeva, Samarqand davlat chet tillar instituti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası professor v.b.

Beshinchidan, tarjima o'qitish jarayoniga lingvistik korpuslar va matn tahlili vositalarini joriy etish muhim. O'quvchilar Sketch Engine yoki COCA kabi platformalardan foydalanib, real matnlardagi tarjimalarni o'rganishlari va kontekstual tarjima malakalarini oshirishlari mumkin.

Tarjimani o'qitishda texnologiyalardan samarali foydalanish uchun uzluksiz ta'lim va innovatsion yondashuv zarur. O'qituvchilar, tarjimonlar va talabalar birgalikda zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib, tarjima jarayonini yanada takomillashtirishlari mumkin. Bu esa tarjima sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar tarjima jarayonida katta imkoniyatlarni ochib bermoqda. Biroq ularni ongli ravishda, inson omilini inobatga olgan holda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima sohasini o'rgatuvchi professor-o'qituvchilari talabalarni nafaqat ushbu vositalardan foydalana olish, balki ularni to'g'ri tahrir qilish va moslashtirish ko'nikmalarini ham shakllantirishga yo'naltirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Abduganiyeva J. *SUN'YI INTELLEKT VA TARJIMA.TNJ* 2024, 6 (57), 132-136. <https://doi.org/10.69691/eg1kph42>
- [2]. BOUOUDEN R. et al. "Technological Tools Integration in the Academic Training of Translators and Interpreters: A Study on the Teachers' Perspectives", *Langues & Cultures.*, vol. 5, no. 02, Dec. 2024, pp. 96–112, <https://doi.org/10.62339/jlc.v5i02.289>.
- [3]. Salieva Z., Kuldoshov U., Bakiev F. and Abdirasulov B. Bridging Gaps in Translation Studies: Implementing European Union Standards in Uzbekistan, *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*, vol. 7, no. 6, pp. 39–46, from <https://al-kindipublisher.com/index.php/ijllt/article/download/7421/6244>, June 13, 2024. DOI: 10.32996/ijllt.2024.7.6.6
- [4]. Ulitkin I., Ivanova N. A. New Technologies for Training Specialists in the Field of Translation and Interpreting. *Issues of Applied Linguistics*, no. 56, Jan. 2024, pp. 111–37, <https://doi.org/10.25076/vpl.56.05>.
- [5]. Yo'ldoshev U.R. *Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma//Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti. – 2021. – T. 126.*
- [6]. Zokirova Kh. *Machine Translation in Uzbekistan: Challenges, Advances, and Future Directions. Zarubežnaâ Lingvistika i Lingvodidaktika*, vol. 2, no. 4/S, Oct. 2024, pp. 203–08, doi:10.47689/2181-3701-vol2-iss4/s-pp203-208.
- [7]. Хонбаев, Ф. (2025). Transforming English Language Teaching: The Dual Impact of Artificial Intelligence on Personalized Learning and Educational Challenges. *Лингвоспектр*, 2(1), 371-381.
- [8]. Ashurov, S., & Mukhiddinova, S. (2024, November). The Harmony of the Concepts of Time and Language. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 30-34).
- [9]. Ashurov, S., & Kazieva, G. (2024, November). Chet tillarni o'qitishda maqol va matallarning o'rni. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 407-410).
- [10]. Sobirjonovna, M. K., & Sheraliyevna, Z. F. (2024). EXPLORING THE INTERSECTION OF LANGUAGE AND IDENTITY: A SOCIOLINGUISTIC PERSPECTIVE ON BILINGUALISM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 228-231